



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ  
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ АБАЙ



# «TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

## MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY  
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,  
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

**TOSHKENT - 2025**



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

**Taqrizchilar:**

**G.Asilova** – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

**G.Norimova** – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

**Tahrir hay'ati:**

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,  
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

*Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.*

*Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.*



DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/TTJZ3786

## GLOBALASHUV SHAROITIDA RAQAMLI SAVODXONLIKNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI

**Xujanova Nilufar Do'smat qizi**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti*

*tayanch doktoranti*

*nilufarxujanova@gmail.com*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada raqamli savodxonlik ko'nikmasining ta'limdagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Raqamli savodxonlik ko'nikmasi deganda kompyuter va internetdan foydalana olish ko'nikmasidan tashqari ma'lumotlarni izlash, saralash, uzatish hamda baholay olish ko'nikmalari ham tushuniladi. Globallashuv jarayonida juda ko'plab sohalar rivojlanib kelmoqda iqtisodiyot, tibbiyot, ta'lim va boshqalar. Bu esa an'anaviy ta'lim o'rnini zamonaviy ta'lim egallashiga keng yo'l ochmoqda. Hozirgi kunda o'qituvchilardan an'anaviy ta'lim metodlaridan foydalanish emas, balki zamonaviy metodlardan foydalanish davr talabiga aylanmoqda. Zamonaviy metodlarni o'rganishda esa pedagoglar raqamli savodxonlik ko'nikmasiga ega ekanliklari muhim hisoblanadi. Raqamli savodxonlikning ta'lim jarayonidagi ahamiyati sezilarli darajada ortib bormoqda. Bu esa o'qituvchi va talabalarning raqamli savodxonlik ko'nikmasiga ega ekanliklari zarurligini anglatadi. Ushbu maqolada raqamli savodxonlik ko'nikmasini rivojlantirish uchun taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli savodxonlik, texnologiyalar, masofaviy ta'lim, interaktiv yondashuv, zamonaviy ta'lim.

**Аннотация.** В этой статье рассматривается роль навыков цифровой грамотности в образовании и подчеркивается важность. Навыки цифровой грамотности включают в себя способность искать, сортировать, передавать и оценивать информацию в дополнение к навыкам работы с компьютером и Интернетом. В ходе глобализации развиваются многие сферы, такие как экономика, медицина, образование и т. д. Это открывает путь к тому, чтобы современное образование заменило традиционное образование. В настоящее время от учителей становится требованием использовать современные методы вместо использования традиционных методов обучения. При изучении современных методов важно, чтобы педагоги владели навыками цифровой грамотности. В заключение отметим, что значимость цифровой грамотности в образовательном процессе существенно возрастает. Это означает, что учителя и учащиеся должны обладать навыками цифровой грамотности. В статье приводятся предложения и рекомендации по развитию навыков цифровой грамотности.

**Ключевые слова:** цифровая грамотность, технологии, дистанционное образование, интерактив, современное образование.


**Abstract.** In this article, the role of digital literacy skills in education and importance is highlighted. Digital literacy skills include the ability to search, sort, transfer, and evaluate information in addition to computer and Internet skills. In the course of globalization, many areas are developing, such as economy, medicine, education, etc. This paves the way for modern education to take the place of traditional education. Nowadays, it is becoming a demand for teachers to use modern methods instead of using traditional educational methods. In learning modern methods, it is important that pedagogues have digital literacy skills. In conclusion, the importance of digital literacy in the educational process is increasing significantly. This means that teachers and students need to have digital literacy skills. This article provides suggestions and recommendations for developing digital literacy skills.

**Key words:** digital literacy, technologies, distance education, interactive, modern education.



“Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasida *“ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan xolda ta’limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish”* kabi ustuvor yo‘nalishlar belgilangan[1]. Bu esa ta’lim tizimida raqamli savodxonlik ko‘nikmasiga ega kadrlar zarurligidan dalolat beradi. *“Raqamli savodxonlik”* atamasi dastlab 1997-yilda Pol Gilster tomonidan kiritilgan. U raqamli savodxonlikni kompyuterlar va internet orqali axborotni tushunish va undan turli texnologiyalar yordamida foydalana olish, raqamli platformalarda bilimni yetkazish qobiliyati sifatida ta’riflagan. Bu tushuncha shunchaki kompyuter savodxonligidan kengroq ma’noni anglatadi[2]. Amerika Kutubxonalar Assotsiatsiyasi tomonidan tuzilgan ishchi guruh esa raqamli savodxonlikni axborotni izlash, uni baholash va yetkazishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish qobiliyati, ya’ni kognitiv va texnik ko‘nikmalarni talab qiluvchi jarayon sifatida ta’riflaydi. YUNESKO Statistika Instituti 2018-yilda raqamli savodxonlikni quyidagicha ta’riflaydi: *“Raqamli texnologiyalar yordamida ish bilan ta’minlanish munosib ish o‘rinlari va tadbirkorlik uchun axborotni xavfsiz va o‘rinli tarzda boshqarish, tushunish, birlashtirish, uzatish, baholash va yaratish qobiliyatidir”*[3]. Raqamli savodxonlik tushunchasiga ta’rif berilganda ko‘plab insonlar kompyuter va internetdan to‘g‘ri foydalana olish ko‘nikmasi sifatida tushunadi. Aslida esa raqamli savodxonlik – bu zamonaviy ta’limning ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, u o‘quvchilarning axborotni izlash, tahlil qilish, baholash va undan samarali foydalanish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Bu ko‘nikmalar nafaqat ta’limda, balki jamiyatda faol ishtirok etish uchun ham zarurdir.

Eshet-Alkalai (2004) raqamli savodxonlikni kengroq talqin qiladi va uni quyidagicha segmentlarga ajratadi[4]. (Qarang: 1-rasm).



1-rasm.

#### 1. Texnologik savodxonlik.

Bu segment kompyuterlar dasturiy ta’minot, mobil qurilmalar va boshqa raqamli vositalardan foydalana olish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. U



foydalanuvchining texnologiyani tushunishi, sozlashi va undan samarali foydalanish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

## 2. Axborot savodxonligi.

Bu raqamli muhitda to'g'ri, ishonchli va dolzarb axborotni topish, baholash va undan foydalanish qobiliyatidir. Internetdagi katta hajmdagi ma'lumotlar orasidan keraklisini ajratib olish hamda uni tahlil qilish muhim jihat hisoblanadi.

## 3. Vizual savodxonlik.

Vizual ma'lumotlar (rasmlar, grafiklar, diagrammalar, videolar)ni tushunish, talqin qilish va yaratish qobiliyatini ifodalaydi. Zamonaviy axborot muhiti ko'pincha vizual shaklda taqdim etiladi, shu bois bu ko'nikma muhim sanaladi.

## 4. Media savodxonligi.

Media vositalaridan kelayotgan xabarlarini tanqidiy baholay olish, ularning maqsadi, konteksti va ta'sirini anglay olish qobiliyatini anglatadi. Bu soha reklama, yangiliklar, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa raqamli mediaga nisbatan tanqidiy yondashuvni o'rgatadi.

## 5. Kompyuterda tanqidiy fikrlash.

Bu foydalanuvchining raqamli axborot va texnologiyalardan foydalanishda tanqidiy fikrlash, tahlil qilish, etik me'yorlarga amal qilish, xavfsizlikka e'tibor berish va ijtimoiy aloqalarni to'g'ri yo'lga qo'yish qobiliyatidir. Bu ko'nikma nafaqat texnik jihatni, balki shaxslararo va ijtimoiy jihatlarni ham qamrab oladi.

Witt & Gloerfeld (2017) fikriga ko'ra, *"raqamli savodxonlik juda muhim, chunki u odamlarga texnologiyadan raqamli dunyoda omon qolish uchun vosita sifatida foydalanishni o'rgatadi"*[5]. Bu kabi ko'nikmalar o'qituvchilarga va talabalarga dunyoda mavjud bo'lgan axborot resurslaridan xavfsiz foydalana olish imkoniyatini beradi. Raqamli savodxonlik ko'nikmasini o'zlashtirish uzluksiz jarayondir. Raqamli savodxonlikning ta'limdagi ahamiyati shundaki, u o'quvchilarning nafaqat bilim olish jarayonini yengillashtiradi, balki ularni axborot asrining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Raqamli savodxon foydalanuvchi axborot manbalarini tanlaydi, uni tanqidiy tahlil qiladi va o'z maqsadiga mos tarzda foydalanadi. Bu esa nafaqat fanning o'zlashtirilishida, balki o'quvchining ijtimoiy va madaniy jihatdan yetuk shaxs bo'lib shakllanishida ham muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, zamonaviy ta'limda o'quvchi markaziga asoslangan yondashuv keng qo'llanilayotgan bir paytda, raqamli savodxonlik o'quvchilarning mustaqil o'rganish strategiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan qaraganda, raqamli savodxonlikni rivojlantirish nafaqat ta'lim sifati, balki butun jamiyatning axborot madaniyatini yuksaltirishning ham asosiy omilidir.

O'qituvchilarning raqamli savodxonlik ko'nikmasi aralash ta'lim berishda ham kerakli hisoblanadi. Buning isboti sifatida pandemiya davridagi vaziyatni misol sifatida olsak bo'ladi. Karantin choralari tufayli maktablar, kollejlari va universitetlar onlayn ta'limga o'tishga majbur bo'ldi. Raqamli savodxonlik – ya'ni, kompyuter, internet va raqamli platformalardan samarali foydalanish ko'nikmasi – o'quvchilar va o'qituvchilar uchun zaruriy shartga aylandi.



O'quvchilar mustaqil ravishda raqamli manbalardan bilim olishni o'rgandilar. Bu, o'z navbatida, ularning axborot savodxonligi va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirdi. Raqamli savodxonlik yetarlicha rivojlanmagan hududlarda va oilalarda ta'lim jarayoni sustlashdi yoki to'xtab qoldi. Bu esa raqamli tafovut muammosini yuzaga chiqaradi. Ko'plab o'qituvchilar raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonlarida muammolarga duch kelishadi. Bu masofaviy darslar zerikarli hamda samarasiz bo'lishiga olib keldi. O'quvchilarning darsdagi faolligi kamayishiga sabab bo'ladi. O'qituvchilarning masofaviy ta'lim berishga tayyorgarligi yetarli darajada emas ekanligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Shu sababli ham raqamli savodxonlik hozirgi davrda juda muhim hisoblanadi. Har ikkala ta'lim shaklini ham qiziqarli va samarali tashkillashtirish uchun o'qituvchilarning raqamli savodxonlik ko'nikmasiga ega ekanliklari muhim sanaladi. Masofaviy o'qitishda so'nggi dastur va texnologiyalardan foydalangan holda darsni yanada interaktiv tashkillashtirish mumkin. Bu ko'nikmani rivojlantirishni maktablardan boshlash kerak, lekin ta'lim muassasalaridagi kompyuter texnologiyalarning yetishmasligi bunga to'sqinlik qilib kelmoqda.

Kramarenko N.S., Kvashin A.Yu., Karakozova S.D., Uvarova A.Yu. va Akimova O.B. tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ta'lim tashkilotlarida raqamli transformatsiya jarayoni resurslar tanqisligi hamda pedagoglarning raqamli savodxonlik darajasining pastligi tufayli sust va izchil bo'lmagan tarzda kechmoqda[6]. Raqamli savodxonlik talabalarga mustaqil tarzda bilimlarini mustahkamlashga, tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga hamda o'z kasbiy faoliyatlarida yaxshi natijalarga erishishda katta yordam beradi.

Talabalar asosan "Google" va "Wikipedia" qidiruvidan ma'lumotlar izlashlari hamda undan foydalanishlari unchalik ham to'g'ri emas. Chunki bu dasturda istagan inson o'z fikrini yozib qoldirishi mumkin. Bu esa ma'lumotning ishonchli yoki ishonchli emasligiga sabab bo'ladi. Talabalar ma'lumotni nusxalash va joylashtirish bilan kifoyalanadilar. Bunday yondashuv nafaqat plagiat muammosini yuzaga keltiradi, balki asosan talabalarning internetdan to'g'ri va samarali tadqiqot olib borish ko'nikmalarining yetishmasligi bilan bog'liq. Talabalarga aniq va ishonchli ma'lumotlarni izlab topish usullarini o'rgatish muhimdir, chunki bu ko'nikma ularning keyingi ta'lim bosqichlarida va kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida muhim vositaga aylanadi. Jeremy J.Sh. va Shelley K.H. (1996) ta'kidlashicha, axborot savodxonligi ta'limning asosiy elementlaridan biri va bu ko'nikmalar o'quvchilarning mustaqil fikrlash va axborotni baholash qobiliyatini rivojlantirishda muhim deb hisoblaydilar[7]. Raqamli savodxonlikning ushbu yo'nalishini rivojlantirish talabalarga samarali tadqiqot olib borishga yordam beruvchi vositalarni ko'rsatish orqali amalga oshiriladi. Ma'lumotlarni to'g'ri tanlash uchun quyidagi tavsiyalar talabalar uchun foydali bo'ladi:

#### 1. Boshlashdan oldin fikrlang.

Har bir topshiriq ustida izlanish boshlashdan oldin uni o'z so'zlaringiz bilan qayta yozing. Bu topshiriqni tushunishga majbur qiladi va izlanish davomida



foydali ma'lumotni aniqlashingizni osonlashtiradi. Agar yordam kerak bo'lsa, o'qituvchingiz, kutubxonachi, ota-onangiz yoki sinfdoshingizdan yordam so'rashingiz mumkin.

## 2. Asosiy manbalarni toping.

Gazeta va jurnal maqolalari, xatlar, kundaliklar, filmlar, fotosuratlar va voqea sodir bo'lgan davrda yozilgan yoki yozib olingan boshqa hujjatlarni "voqeani ko'rgan guvohlarning ma'lumotlari" deb hisoblash mumkin. Bu manbalar, odatda, ikkilamchi (ikkinchi qo'l) ma'lumotlarga qaraganda ishonchliroq bo'ladi.

## 3. Sarlavhaga e'tiborli bo'ling.

Soxta va ishonchsiz axborot tarqatishda ko'pincha e'tiborni tortish uchun shov-shuvli yoki hayratlanarli sarlavhalardan foydalanishadi, biroq sarlavha yoki ijtimoiy tarmoqdagi post voqeaning to'liq mazmunini aks ettirmaydi. Soxta axborot tarqatishda ishlatiladigan sarlavhalar ko'pincha butunlay katta harflarda yoziladi va undov belgilaridan foydalaniladi[8].

Faktlarni tekshirish manbalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Snopes: [www.snopes.com](http://www.snopes.com)

Politifact: [www.politifact.com](http://www.politifact.com)

Fact Check: [www.factcheck.org](http://www.factcheck.org)

*Raqamli savodxonlik ko'nikmasini rivojlantirish uchun takliflar:*

Lankshear va Knobel (2006) ushbu mavzu bo'yicha raqamli media bilan samarali ishlash uchun dastlab matn savodxonligi va texnik ko'nikmalarni o'rganishni, keyinchalik esa kognitiv va ijtimoiy-madaniy malakalarni o'rganishni taklif qildilar[9]. Bu yondashuv raqamli savodxonlikning murakkab va ko'p qirrali jarayon ekanini ko'rsatadi. Faqatgina texnologik vositalardan foydalana olish kifoya emas, balki bu vositalarni maqsadga muvofiq, tanqidiy fikrlash asosida va ijtimoiy kontekstda qo'llay olish ham muhim sanaladi. Ayniqsa, ta'lim jarayonida raqamli savodxonlik o'quvchilarning axborotni izlash, tahlil qilish, baholash va uni samarali tarzda taqdim eta olish qobiliyatini oshiradi. Shuningdek, bu ko'nikmalar o'quvchilarning mustaqil o'rganish, muammolarni hal qilish va zamonaviy jamiyatda faol ishtirok etishlariga zamin yaratadi. Ayniqsa, sun'iy intellekt vositalari keng joriy etilayotgan bugungi ta'lim muhitida raqamli savodxonlik o'quv jarayonining sifatini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylanmoqda. Shu bois raqamli savodxonlikni nafaqat texnik ko'nikmalar majmuasi, balki madaniy, ijtimoiy va kognitiv malakalarning uzviy uyg'unligi sifatida talqin qilish zarur. Buni amalga oshirish uchun esa universitet darslarida raqamli savodxonlik ko'nikmasini rivojlantirishga oid seminarlar tashkil qilish samarali hisoblanadi.

Aholining raqamli savodxonlik darajasini baholash va uni oshirish maqsadida maxsus "Platforma" tashkil etilishi zarur. Ushbu platformada quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ta'lim berilishi rejalashtirilishi mumkin:

- Kompyuter bilan ishlash ko'nikmalari;
- Onlayn ma'lumotlarga kirish;
- Onlayn muloqot madaniyati;



- Raqamli xavfsizlik va mas'uliyat;
- Raqamli kontent yaratish.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamli savodxonlikni rivojlantirishda maxsus platformalardan foydalanish samarali hisoblanadi. Masalan, AQShning Minnesota shtatida faoliyat yuritayotgan *"Northstar Digital Literacy"* markazi tomonidan ishlab chiqilgan platforma aholining raqamli savodxonligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu platforma [www.digitalliteracyassessment.org](http://www.digitalliteracyassessment.org) veb-sayti orqali foydalanuvchilar raqamli savodxonlik bo'yicha kurslardan o'tishlari, yakunida esa maxsus sertifikat yoki raqamli nishon olish imkoniyatiga ega bo'ladilar[10].

YUNESKO (2018) tomonidan taklif etilgan raqamli savodxonlik kompetensiyalarining global modeli raqamli ko'nikmalarni formal ta'lim dasturlariga kiritishni tavsiya etadi. Bunda o'qituvchilarni tayyorlash, o'quv rejalari va baholash mezonlarini raqamli ehtiyojlarga moslashtirish zarurligi ta'kidlanadi[11].

Xulosa qilib aytganda, raqamli savodxonlik ko'nikmasining ta'lim jarayonidagi ahamiyati juda muhim hisoblanadi. Globallashuv sharoitida raqamli savodxonlik ko'nikmasiga ega pedagoglar uchun talab kun sayin ortib bormoqda. Mamlakatimizda ham raqamli savodxonlik ko'nikmasini rivojlantirish uchun ustuvor yo'nalishlar belgilab olingan. Yuqorida ta'kidlangan taklif va tavsiyalar orqali talabalar raqamli xavfsizlikka erishishlari mumkin. Buning natijasida ular ishonchli ma'lumotlarni izlashni hamda ulardan to'g'ri foydalanishni o'rganishadi. Ta'lim jarayoniga raqamli savodxonlikni integratsiyalash orqali o'quvchilarning ta'lim olish sifatini yanada oshirish mumkin. Bu ko'nikmalar o'quvchilarning axborotni izlash, tahlil qilish, baholash va undan samarali foydalanish qobiliyatini oshiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilning 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PF-6079 son farmoni. <https://lex.uz/pdfs/5030957>
2. Gilster, P. Digital literacy. New York: John Wiley & Sons, 1997.
3. UNESCO-UIS. A global framework of reference on digital literacy skills for indicator. Retrieved from <https://uis.unesco.org/sites/default/files/documents/ip51-global-framework-reference-digital-literacy-skills-2018-en.pdf>
4. Eshet-Alkalai, Y. Digital Literacy: A Conceptual Framework for Survival Skills in the Digital Era. Journal of Educational Multimedia and Hypermedia, 13(1), 2004. –106.
5. Witt, C., & Gloerfeld, C. Mobile learning and higher education. In The Digital Turn in Higher Education. 2017. – P. 61-79.
6. Kozlova N.Sh. Ta'limdagi raqamli texnologiyalar. – Maykop davlat texnologiya universiteti, 2019. – 1/40 jild, 83-90-betlar.
7. Shapiro J.J., Hughes S.K. "Information Literacy as a Liberal Art". // Educom Review, 1996.
8. <https://www.webwise.ie/teachers/advice-teachers/digital-literacy-skills-finding-informat>.



9. Lankshear, C. and Knobel M. (2006). Digital literacies: policy, pedagogy and research considerations for education. Digital Kompetanse: Nordis Journal of Digital Literacy, 2006. – 1(1). P.12-24.

10. How COVID-19 spreads. U.S. Centers for Disease Control and Prevention (CDC). 2 April 2020. Available online: <https://www.cdc.gov/coronavirus/2019-ncov/prevent-getting-sick/how-covid-spreads.html> (accessed on 23 July 2020).

11. UNESCO (2018). A Global Framework of Reference on Digital Literacy Skills for Indicator 4.4.2.

## ADABIYOT DARSLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH IMKONIYATLARI

**Xo'jayeva Mohinur Tulqinovna**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti 1-  
kurs magistranti*

*[mokh.khujaeva@gmail.com](mailto:mokh.khujaeva@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Adabiyot darslarida raqamli texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari haqida so'z yuritish, zamonaviy ta'lim jarayonining muhim jihatlaridan biridir. Raqamli texnologiyalar ta'lim sohasida yangi imkoniyatlar yaratib, o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Adabiyot darslarida bu texnologiyalarni qo'llash nafaqat o'quvchilarning diqqatini jalb etishda, balki ularning adabiy asarlarni chuqurroq tushunishida ham katta ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** adabiyot, raqamli texnologiyalar, video materiallar, ta'lim platformalari, ko'nikma, materiallar.

**Аннотация:** Обсуждение возможностей использования цифровых технологий на уроках литературы является одним из важных аспектов современного образовательного процесса. Цифровые технологии создают новые возможности в сфере образования, делая процесс получения знаний для учащихся более интересным и эффективным. Использование этих технологий на уроках литературы имеет большое значение не только для привлечения внимания учащихся, но и для более глубокого понимания ими литературных произведений.

**Ключевые слова:** литература, цифровые технологии, видеоматериалы, образовательные платформы, навыки, материалы.

**Abstract:** Discussing the possibilities of using digital technologies in literature lessons is one of the important aspects of the modern educational process. Digital technologies create new opportunities in the field of education, making the process of acquiring knowledge for students more interesting and effective. The use of these technologies in literature lessons is of great importance not only in attracting students' attention, but also in their deeper understanding of literary works.

**Keywords:** literature, digital technologies, video materials, educational platforms, skills, materials.

Adabiy ta'limda adabiyot o'qitish orqali o'quvchilarda obrazli fikrlash, badiiy-estetik did, keng dunyoqarash kabi tushunchalar va kitobga, badiiy asarga bo'lgan muhabbat hissi oshadi. Zero, badiiy adabiyot inson qalb go'zalligini, dilidagi ezgulikni yuzaga chiqaruvchi vositadir. Zamonaviy adabiyot darslarida milliy hamda jahon adabiyoti vakillarining durdona asarlari o'rin



|                                                                                                                                                                                       |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <i>Botirova Nigora Nurulla qizi. DARSLIKLARDA BERILGAN HIKOYA NAMUNALARINI O'QITISH METODIKASI</i>                                                                                    | 881 |
| <i>Ibroximova Surayyoxon Shodibek qizi. ZAMONAVIY ADABIYOT DARSLARIDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH</i>                                                                 | 887 |
| <i>Ismoilova Maxliyo Atxamali qizi. ADABIYOT O'QITISHDA EPISTOLYAR NAMUNALARDAN FOYDALANISH (MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LI OYBEK IJODI MISOLIDA)</i>                                       | 893 |
| <i>Meliboyeva Dilafruz Abdurahim qizi. 6-SINF ADABIYOT DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI O'QISH MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH YUZASIDAN MULOHAZALAR</i>                                        | 898 |
| <i>Meyliyeva Nasiba Tolmas qizi. 5–7-SINFLAR ADABIYOT DARSLARIDA SHE'RIY ASARLARNING BADIY TIL XUSUSIYATLARINI O'RGATISH METODIKASI: MIRTEMIR VA ANVAR OBIDJON SHE'RLARI MISOLIDA</i> | 903 |
| <i>Nomozova Dilobar Suyun qizi. FAXRIYOR SHE'RIYATINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR</i>                                                                                         | 908 |
| <i>Qodirova Dilnoza Alisher qizi. ADABIY TA'LIMDA O'QUVCHILARNING REFLEKSIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA</i>                                               | 916 |
| <i>Qosimova Munisa Botirjon qizi. KEYS TEXNOLOGIYASINING O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI</i>                                                                            | 920 |
| <i>Raxmatova Karima Erkinovna. DRAMATIK YARATIQLARNI O'QITISH QANCHALIK MUHIM?</i>                                                                                                    | 925 |
| <i>Saydullayeva Shoiraxan Kaxramon qizi. TARIXIY ROMANLARNI O'QITISHDA KONSPIROLOGIYA NAZARIYASIDAN FOYDALANISH</i>                                                                   | 930 |
| <i>To'g'onova Dinoraxon Mansurjon qizi. ADABIYOT DARSLARIDA INTERAKTIV O'QITISH MODELINING AMALIY TARAQQIYOTI VA AMALIYOTI</i>                                                        | 935 |
| <i>Toshpulatova Marjona Jamoliddinovna. UMUMTA'LIM BOSQICHLARIDA "XAMSA" DOSTONINI O'QITISH</i>                                                                                       | 942 |
| <i>Xolova Sabina Jo'raqulovna. LIRIK ASARLARNI O'QITISHGA XOS YONDASHUVLAR (O'ZBEKISTON VA TURKIYA TA'LIM TIZIMI MISOLIDA)</i>                                                        | 950 |
| <i>Xudoynazarova Sug'diyona Tillamurodovna. ADABIYOT DARSLARIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI</i>                                                            | 953 |
| <i>Xujanova Nilufar Do'smat qizi. GLOBALASHUV SHAROITIDA RAQAMLI SAVODXONLIKNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI</i>                                                                    | 958 |
| <i>Xo'jayeva Mohinur Tulqinovna. ADABIYOT DARSLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH IMKONIYATLARI</i>                                                                              | 964 |
| <i>Norqulov Nurzod Saidmurodovich. MUMTOZ NASRIY ASAR TAHLILI YUZASIDAN ZAMONAVIY QARASHLAR</i>                                                                                       | 968 |
| <i>Abdullayeva Dildora Shokir qizi. ALISHER NAVOIY RUBOIY VA QIT'ALARINING BADIY KUCHI VA ULARNI O'QITISHNING SAMARALI USULLARI</i>                                                   | 972 |

